

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT-PROTSESSUAL
QONUNCHILIGINI MODERNIZATSIYA QILISH: INSONPARVARLIK
VA RAQAMLI ISLOHOTLAR TAHLILI**

Eliboyev Hayitmurod Jonibek o‘g‘li

2006-yil 26-oktabrda tug‘ilgan. Hozirda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakultetining 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga so‘nggi yillarda kiritilgan konseptual o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Xususan, dalillar tushunchasiga "faktik ma'lumotlar" terminining kiritilishi, raqamli dalillarning huquqiy maqomi hamda ushlab turish muddatini hisoblashning yangi tartibi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, uy qamog‘i ehtiyot chorasini qo‘llashda inson hayoti ustuvorligi va sud nazoratini kuchaytirish masalalari ilmiy asoslab berilgan. Maqola yakunida ushbu islohotlarning sud-huquq tizimini insonparvarlashtirishdagi ahamiyati haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat-protsessual kodeksi, faktik ma'lumotlar, raqamli dalillar, ushlab turish muddati, uy qamog‘i, Habeas Corpus tamoyili, inson huquqlari, sud nazorati.

KIRISH

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda mavjud bo‘lgan sud-huquq tizimi tubdan yangilanmoqda hamda xalqaro standartlarga asosan takomillashtirilmoqda. Shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining moddalari ham takomillashtirilmoqda. Ushbu mustaqil ishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining so‘ngi yillarda ahamiyati keskin oshgan hamda amaliyotda juda ko‘p muhokamalarga sabab bo‘layotgan uchta moddasini tahlil qilib berishga harkat qilaman; Shunga ko‘ra quyidagi 3 ta modda:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasi – Dalillarning turlari
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 226-moddasi –
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242¹ – moddasi – Uy qamog‘i

Ushbu mustaqil ishdan maqsad O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining ushbu moddalariga kiritilgan yangiliklarning mohiyatini tushunish, ularning avvalgi holatdan farqini v anima uchun bugungi kunda aynan ushbu moddalar dolzarb bo‘lib qolganligini tushunish hisoblandi

MODDALAR BO‘YICHA TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga (dalillarning turlari) kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar hamda ularning mohiyati

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli qonunning 4-bandiga¹ asosan o‘zgartirilgan ya’ni kodeksning 01.04.1995-yilgi versiyasidagi ushbu qismda quyidagicha berilgan, ya’ni Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma’lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi. Aynan ushbu ta’rifdagi haqiqiy ma’lumotlar termini faktik ma’lumotlar termini bilan almashtirilgan. Bunga asosiy sabab shuki “haqiqat” so‘zi ko‘pincha mutlaq bo‘lgan haqiqatni anglatadi, ammo tergov jarayonida har qanday ma’lumot ham hali isbotlanmagan bo‘ladi, “faktik” so‘zi esa bu mavjud bo‘lgan qayd qilingan fakt, ma’lumot degan ma’noni anglatadi. Undan tashqari bizning qonunchiligimizni xalqaro huquqiy terminologiyaga moslashtirish ham juda muhim edi ya’ni “ fakt” termini xalqaro huquqiy hujjatlarda qo‘llaniladigan “factual data” terminidan olingan holda yangilandi.

Undan tashqari aynan ushbu moddaning ikkinchi qismi ham aynan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli qonunning 4-bandiga² asosan o‘zgartirilgan ya’ni ushbu modda ikkinchi bandi quyidagicha: Bu ma’lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko‘rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovoqli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi. Ushbu banddagi ashtoviy dalillar so‘zidan keyin yozma va raqamli dalillar so‘zi qo‘shilgan. Buning asosiy sababi kompyuter-texnologiyalarining hamda internetning shiddat bilan rivojlanganligi. Bilamizki hozirgi sodir etilayotgan jinoyatlarda ko‘plab dalillar telefon yozishmalari, electron pochta, turli ko‘rinishdagi fayllar va videoyozuvlar ko‘rinishida bo‘ladi, undan tashqari aynan mana shunday ko‘rinishdagi dalillarni olish, saqlash va baholash jarayonini aniq huquqiy asosga qo‘yish zarur bo‘lganligi uchun ham ushbu terminlar qo‘shilgan.

Ushbu moddada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 01.04.1995-yilgi versiyasidagi uchinchi qismi kengaytirilgan va aniqlashtirilgan va ushbu qism O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O‘RQ-675-sonli

¹ [O‘RQ-1003 4-band](#)

² [O‘RQ-1003 4-band](#)

qonunning 11-bandiga³ ko'ra quyidagicha tahrirda bayon etilishi belgilab qo'yilgan: Agar tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan bo'lsa, ushbu Kodeks normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyin hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yoki tezkor-qidiruv tadbirida ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog'liq bo'lmagan holda shaxsda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo'lganligidan dalolat bersa, ushbu natijalar dalil sifatida tan olinishi mumkin. Ushbu bandning butarзда tahrirlanishining asosiy sababi oldingi Jinoyat-protsessual kodeksida bu norma juda umumiy bo'lgan va xalqaro standartlarga moslashtirilishi zarur edi. Ya'ni xalqaro Huquq amaliyotida aynan mana shu jarayonlar ya'ni biror jinoyat ishi bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va tergovni olib boruvchi xodimlar jinoyatni o'zlari sun'iy ravishda keltirib chiqarmasligi va shaxsni jinoyat sodir etishga undamagan bo'lishligi asosiy masala hisoblanadi va aynan mana shu sabablar qismning qayta tahrirlanishi uchun asosiy sabab bo'lgan desak bo'ladi. Shuningdek ushbu qismga ko'ra faqatgina qonun talablariga muvofiq olingan, Jinoyat-protsessual kodeksi normalriga muvofiq tekshirilgan va baholangan bo'lishi zarurligi bu qonuniylik prinsipining yaqqol misolidir. Umuman olganda asosiy maqsad jinoyat ishi bo'yicha olib boriladigan tezkor qidiruv faoliyati tadbirlarining shafofligini ta'minlash va ular bo'yicha olinadigan dalillarning qonuniyligini kafolatlash va bu orqali fuqarolarning huquqlari himoyasini yanada kuchaytirish bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 226-moddasiga (Ushlab turish muddati) kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda ularning mohiyati

Ushbu moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-sonli Qonunining 15-bandiga⁴ asosan quyidagi tahrirda bayon etila boshlagan: Ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan (erkin harakatlanishga bo'lgan huquqlarning haqiqiy cheklangan payti) e'tiboran ko'pi bilan qirq sakkiz soatni tashkil etadi. Avvalgi versiya bo'yicha Ushlab turish muddati ushlangan ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab hisoblangan. Ush u o'zgarishning asosiy sababi shundaki shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushlangan paytdan boshlab uning erkin harakatlanish erkinligi cheklanadi va Konstitutsiyasining 27-moddasida hamda "Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi" ning 3-moddasida belgilangan har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi buziladi. Avvalgi kodeksda ushbu holat chalkash ko'rsatilgan edi ya'ni shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga keltirilgandan boshlab ushlab turish vaqti hisoblanishni boshlardi. Bu holatda fuqarolarning ayrim huquqlari buziladi, chunki shaxsga nisbatan

³ [O'RQ-675 11-band](#)

⁴ [O'RQ-675 15-band](#)

ta'sir chorasi u ushlangan paytdan boshlanadi ya'ni shaxsning o'sha paytdan boshlab harakat qilish erkinligi cheklanadi.

Undan tashqari ushbu moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli qonunning 7-bandiga⁵ asosan quyidagi tahrirda o'zgartirilgan: Alohida hollarda, ushlab turilgan gumon qilinuvchiga nisbatan sud tomonidan qamoqqa olish, uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot choralari qo'llanilishi mumkin. Bunda gumon qilinuvchiga u ushlangan kundan e'tiboran o'n kun ichida ayblov e'lon qilinishi kerak. Aks holda ehtiyot chorasi bekor qilinadi va shaxs qamoqdan yoki uy qamog'idan ozod etiladi, garov esa garovga qo'yuvchiga qaytariladi. Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin va ushlab turishning butun muddati mobaynida ishni yuritish o'ziga taalluqli bo'lgan surishtiruvchi va tergovchi jinoyatni sodir etish holatlarini aniqlash, ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish uchun o'z vakolatlari doirasida tergov harakatlari o'tkazishi mumkin. Avvalgi tahrirda faqatgina qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkinligi aytilgan. Bu juda qat'iy ehtiyot chorasi edi edi undan tashqari bu eski tahrirdagi norma tanlov imkoniyatini cheklardi. Ammo yangi tahrirdagi qonunga ko'ra garov va uy qamog'ining qo'shilganligi bu jinoyatlarning darajasiga ko'ra ehtiyot chorasi qo'llanilishi imkoniyatini yaratdi qolaversa bu orqali insonparvarlik hamda odillik tamoyilini amaliyotda muvaffaqitli qo'llanilishini ta'minlaydi ya'ni ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'it bo'lmagan shaxslarni ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish emas balki yuqoridagilardan biri qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242¹-moddasiga (Uy qamog'i) kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda ularning mohiyati

Ushbu moddaning to'rtinchi qismiga O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-664-sonli qonunning 14-bandiga⁶ ko'ra uy qamog'i gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan faqatgina sud ajrimi bilan tayinlanadigan bo'ldi buning asosiy sababi ushbu kodeks moddalarini jahon standartlariga moslashtirish jumladan "Xabeas-korpus" tamoyiliga ya'ni ushbu tamoyilga ko'ra hech kim asossiz erkinligidan mahrum etilishi mumkin emas va bunga faqatgina sud qaroriga asosan yo'l qo'yilishi demakdir.

Shuningdek ushbu moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli qonunning 11-bandiga⁷ asosan qo'shildi va quyidagicha bayon etiladi: Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi himoyachi, qonuniy vakil, belgilangan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi zimmasiga yuklatilgan organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bilan so'zlashish uchun, shuningdek zaruriyat yuzaga kelgan taqdirda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni, tez tibbiy yordamni, yong'in

⁵ [O'RQ-476 7-band](#)

⁶ [O'RQ-664 14-band](#)

⁷ [O'RQ-476 11-band](#)

xavfsizligi xizmatini, qutqaruv xizmatini va boshqa shoshilinch xizmatlarni chaqirish uchun telefon aloqasidan foydalanish huquqidan cheklanishi mumkin emas. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z yashash joyidagi uy qamog'ini ijro etish zimmasiga yuklatilgan ichki ishlar organiga har bir shunday qo'ng'iroq haqida xabar beradi. Ushbu bandini qo'shishning eng asosi sabablaridan biri bu inson hayotining har narsadan ustuvorligi. Ya'ni har qanday uy qamog'ida saqlanayotgan shaxs favqulottda holatlar yuzaga kelganda unda telefon orqali aloqa qilmaslik cheklovi borligiga qaramay tez tibiiy yordam, o't o'chiruvchi hamda ichki ishlar xodimlariga favqulottda holat haqida xabar berish hamda o'zining va oila a'zolarining va boshqa kishilarning hayotini shu kabi xavfdan qutqarish imkoniyatini berish hisoblandi. Undan tashqari shaxsning uy qamog'ida bo'la turib tergovchi, prokuror yoki sud bilan aloqa qilishi bu uning protsessual huquqlarini ta'minlaydi ya'ni bu orqali uy qamog'ida saqlanyotgan shaxslar protsessual iltimosnomalar berishi yoki boshqa muhim ma'lumotlarni ushbu organlarga yetkazishini ta'minlaydi.

Ushbu moddaning o'n yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli qonunning 10-bandiga⁸ asosan qo'shilgan va quyidagicha bayon qilingan: O'rnatilgan taqiqlar (cheklovlar) uy qamog'ida bo'lgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan buzilgan taqdirda unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin. Ushbu bandni qo'shishdan asosiy maqsadlardan biri uy qamog'ida belgilangan cheklovlarga shaxslarning rioya etishini kuchaytirish hisoblanadi. Agarda ushbu cheklovlarni buzganlik uchun ta'sir chorasi bo'lmasa, shaxslar qo'yilgan ta'qiqlarni bemalol chetlab o'tishi mumkin. Undan tashqari bu orqali shaxslarga nisbatan ehtiyot chorasi kuchaytirish va uning sud yoki tergov, surishtiruv organlaridan qochish imkoniyatini kamaytiradi ya'ni shaxsga birinchi uy qamog'I beriladi agar u belgilangan cheklovlarga rioya qilmasa demak uy-qamog'i ushlab turish uchun yetarli emas va u qamoqqa olish ehtiyot chorasiga o'zgartirilishi zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Jinoyat-protsessual kodeksining moddalariga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligini insonparvarlashtirish va zamonaviylashtirishga qaratilgan. Jumladan ushlab turish muddatining shaxs IIV yoki HMQO tomonidan ushlangan paytdan boshlab hisoblanishi, alohida hollarda shaxslarga nisbatan qo'llamiladigan ehtiyot choralarning kengaytirilishi, uy qamog'I tarzidagi ehtiyot chorasining faqat sud ajrimi bilan tayinlanishi mumkinligi shaxslarning shaxsiy daxlsizlik huquqining amaliy himoyasidir. Elektron ma'lumotlarning dalil sifatida qabul qilina boshlashi esa bizning qonunchilik tizimimizning raqamli asr talablariga moslashayotganidan dalolat beradi. Kiritilayotgan mazkur islohotlar odil sudlov sifatini oshirish va insonlarning

⁸ [O'RQ-373 10-band](#)

huquqlari himoyasining kafolatlarini yangi bosqichga olib chiqqishga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. Inson Huquqlari Uumjahon deklaratsiyasi
4. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-373-sonli qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli qonuni
6. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O‘RQ-664-sonli qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O‘RQ-675-sonli Qonuni